Qanday örnatiladi va faollaştiriladi

«Qöştirnoq» içida dastur tugmalari, qalin yozuvda sayt tugmalari.

1. Saytdan yuklab oling

Brauzerda smartdoclabs.uz saytini oçing va yuqoridagi **Loyihalar** bölimiga öting.



Yangi alifbo konvertori kartoçkasida **Oçiş** ni bosing, keyin **Windows dasturi va Word/Excel plagini** havolasini bosing. Qisqa yöl: manzil qatoriga smartdoclabs.uz/alifbo deb yozing.



Windows dasturini yuklab oliş tugmasini bosing: SmartDoc_Alifbo_Setup.exe yuklanadi. Brauzer faylni kam yuklanadigan deb ogohlantirsa, yuklanmalar röyxatida faylni saqlaşni tanlang.



2. Örnating: Windows ogohlantirişi odatiy holat

Yuklangan faylni ikki marta bosing. Kök Windows oynasi çiqişi mumkin («Windows protected your PC», rasmda rusça). Bu odatiy holat: dastur yangi va hali raqamli imzosiz, şuning uçun Windows uni tanimaydi. Faylni faqat smartdoclabs.uz dan olgan bölsangiz davom eting: matn ostidagi havolani, **More info** ni bosing (rusça Windows'da «Podrobnee»).



Keyin **Run anyway** tugmasini bosing (rusça Windows'da «Vypolnit v lyubom sluçae», rasmda 1 raqami). Windows va antivirus sozlamalarini özgartiriş şart emas.



Örnatuvçi oçiladi. Ogohlantirişni öqing va «Keyingi» ni bosing.



Şartlarni öqing, «Şartlarni qabul qilaman» ni belgilang va «Keyingi» ni bosing.



Qismlarni tanlang. Windows dasturi majburiy, Word va Excel plaginini xohlasangiz olib taşlaysiz. Bitta litsenziya uçalasiga yetadi. «Keyingi», söng «Örnatiş» ni bosing.



«Microsoft Word oçiq» yoki «Microsoft Excel oçiq» yozuvi çiqsa: hujjatingizni saqlang, şu dasturni yoping, «Orqaga» ni bosing va yana «Örnatiş» ni bosing.



«Dasturni oçiş» belgisini qoldirib, «Tugatiş» ni bosing. Keyin dastur Start menyusidan oçiladi.



3. Sinab köring

Dastur birinçi marta oçilganda ikki tugma çiqadi. Sinaş uçun «3 kun bepul sinash» ni bosing: bir marta internet kerak, 3 kun içida jami 30 ta faylgaça. Promo-kod yoki

kalitingiz bölsa, «Sotib olish / kalitim bor» ni bosing va keyingi bölimga öting.



Foydalaniş şartlarini öqib, «Qabul qilaman» ni bosing.



Dastur tayyor. Faylni oynaga sudrab taşlang va «Ögiriş» ni bosing. Pastda sinovdan qança qolgani körinadi.



4. Promo-kod yoki kalit bilan faollaştiring

«Sotib olish / kalitim bor» oynasida «Saytga o‘tish» ni bosing. Sayt qurilma kodi bilan

oçiladi. Kalitingiz tayyor bölsa, 4–qadamga öting.



Saytda promo-kodni kiriting va **Tekşiriş** ni bosing, rozilik belgisini qöyib **Faollaştiriş** ni bosing.



Kalit çiqadi. **Nusxa oliş** ni bosing va kalitni saqlab qöying: u botga va çatga yuborilmaydi.



Dasturga qayting, kalitni qöying va «Faollashtirish» ni bosing. Tayyor: dastur va plagin işlaydi.



Kod oliş: Pro sahifasidagi «Telegram'da ariza qoldiriş» tugmasini bosing. Siz bilan boğlanib, kod yuboramiz. Kodni Pro sahifasidagi «Promo-kod» maydoniga kiriting.

5. Foydalaniş: hujjatni yangi alifboga ögiring

Dasturni Start menyusidan oçing. Yuqorida «Manba» qatorida «Avto» (1), «Natija» qatorida «Yangi lotin» (2) tanlangan bölsin: dastur kirill va eski lotin yozuvini özi

aniqlaydi.

Word (.docx), Excel (.xlsx), PowerPoint (.pptx) yoki matn faylini oynaga sudrab taşlang yoki «Fayl tanlaş» ni bosing (1), söng «Ögiriş (F5)» ni bosing (2). «Natija joyi» da «Asl fayl yonida» (3) tanlangan bölsa, natija asl fayl yonida, nomiga _yangi_lotin qöşilgan alohida fayl bölib saqlanadi. Asl fayl özgarmaydi.

Word'da: yuqoridagi «Alifbo» bölimini oçing (1) va «Hammasi → Yangi» ni bosing (2): hujjatning hamma qismi yangi alifboga ögiriladi. Natija yoqmasa, Ctrl+Z bilan qaytaring.

Excel'da: «Alifbo» bölimini oçing (1), «Yönaliş» röyxatida «Avto → Yangi lotin» ni tanlang, söng «Belgilangan», «Varaq» yoki «Kitob» tugmasini bosing. «Kitob» butun faylni ögiradi. Formulalar, sonlar va sanalarga tegilmaydi; bekor qiliş: Ctrl+Z.

Natijani tekşiring: ism-familiya, atama va qisqartmalarni közdan keçiring. Kirill yozuvidagi rusça söz ham lotinga ötib qolişi mumkin. Muhim hujjatning asl nusxasini saqlab qöying.

6. Kompyuter almaştiriş, öçiriş, savollar

Kompyuter almaştiriş: eski kompyuterda «Haqida», söng «Bu kompyuterdan o'chirish» ni bosing (internet kerak), keyin kalitni yangi kompyuterda kiriting. Eski kompyuter yöqolgan bölsa, Pro sahifasidagi **Barça qurilmalarni böşatiş** bölimidan foydalaning.



Dasturni olib taşlaş: Windows sozlamalarida SmartDoc Alifböni toping va öçiring. Bu litsenziyani böşatmaydi: kerak bölsa, avval «Bu kompyuterdan o'chirish» ni bosing.

Savollar: **@smartdoclabs_bot**, 24 soat içida javob beramiz.